

Ziyorat ma'rifati

Jamoa bilan qilingan amallar doimo xayrlik bo'ladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatlarida muhaddis alloma Imom Buxoriyning amallar niyatlarga yarasha bo'ladi degan fikrlarini eslatib o'tishlari bejiz emas. Yil boshidan ezgu niyatlar qilish, ulug'larning qadamjolarini ziyorat qilish inson qalbiga shukronalik va qanoat tuyg'usini baxsh etibgina qolmay, balki ularga ma'rifat baxsh etishi ham muqarrardir.

Xuddi shu maqsadda 2019 yil 5-yanvar kuni institutning Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori Q. Shovazovning tashabbusi bilan institutning 1-guruh faol ayollari Zangiota ziyoratgohiga tashrif buyurishdi. Ziyorat faol ayollarda katta taassurot qoldirganiga shubha yo'q.



Institut xotin-qizlar kengashi raisi Z.Hafizova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov